



TOURISM STRATEGY IN UZBEKISTAN (1990–2000)

Halim Salimovich Murodov

PhD, Associate Professor

Department of Social Sciences

Bukhara State Pedagogical Institute

Email: murodovhalim645@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tourism, economic development, foreign currency revenues, tourism strategy, infrastructure, international tourism, investment, service sector, cultural heritage, tourism market, tourism in Uzbekistan.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of the role of the tourism sector in the national economy, its contribution to generating foreign currency revenues, and development trends based on international experience. In particular, the dynamics of the sharp growth in tourism revenues are illustrated through the examples of Austria and Hungary. The article also scientifically substantiates the development prospects of the Republic of Uzbekistan's tourism potential, based on its geographical location, historical and cultural heritage, natural and climatic conditions, and infrastructure capabilities. Furthermore, it analyzes the strategic directions, priority tasks, and phased reforms developed for tourism development in the 1990s, highlighting tourism's contribution to economic growth, employment, and international integration.

O'ZBEKISTONDA TURIZM STRATEGIYASI (1990–2000)

Halim Salimovich Murodov

PhD, Dotsent

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası

Buxoro davlat pedagogika instituti

E-mail: murodovhalim645@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Turizm, iqtisodiy

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi oʻrni,

rivojlanish, valyuta tushumlari, turizm strategiyasi, infratuzilma, xalqaro turizm, investitsiya, xizmatlar sohasi, madaniy meros, turizm bozori, O'zbekiston turizmi.

uning valyuta tushumlarini shakllantirishdagi roli hamda xalqaro tajriba asosida rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil etilgan. Xususan, Avstriya va Vengriya tajribasi misolida turizm daromadlarining keskin o'sish dinamikasi yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyati, uning geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy merosi, tabiiy-iqlim sharoiti hamda infratuzilma imkoniyatlari asosida rivojlanish istiqbollari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada 1990-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategik yo'nalishlar, ustuvor vazifalar va bosqichma-bosqich islohotlar tahlil qilinib, turizmning iqtisodiy o'sishga, bandlikni ta'minlashga hamda xalqaro integratsiyaga qo'shadigan hissasi keng yoritilgan.

СТРАТЕГИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ (1990–2000 ГГ)

Халим Салимович Муродов

PhD, доцент

Кафедра социальных наук

Бухарский государственный педагогический институт

murodovhalim645@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туризм, экономическое развитие, поступления, стратегия туризма, инфраструктура, международный туризм, инвестиции, сфера услуг, культурное наследие, туристический рынок, туризм Узбекистана.

Аннотация: В данной научной статье глубоко проанализированы роль туристической отрасли в национальной экономике, её значение в формировании валютных поступлений, а также тенденции развития на основе международного опыта. В частности, на примере Австрии и Венгрии освещена динамика резкого роста доходов от туризма. Также научно обоснованы перспективы развития туристического потенциала Республики Узбекистан с учётом её географического положения, историко-культурного наследия, природно-климатических условий и инфраструктурных возможностей. В статье рассмотрены стратегические направления, приоритетные задачи и поэтапные реформы, разработанные для развития туризма в 1990-е годы, а также подробно раскрыт вклад туризма в экономический рост, занятость и международную интеграцию.

Kirish. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. U nafaqat xizmatlar sohasining muhim qismi, balki davlatlar uchun barqaror valyuta tushumlarini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida ham e'tirof etiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirish orqali qisqa muddatlarda iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, Avstriyada turizm sohasidan olinadigan daromadlar 80 yil ichida 2,1 milliard shillingdan 110,1 milliard shillinggacha oshib, 55 baravar ko'paygan. Xuddi shuningdek, Vengriyada chet el turizmidan olinadigan daromadlar 80 foizga ortib, 1 milliard AQSh dollariga yetgan[1.B.52]. Bu ko'rsatkichlar turizmning yuqori daromad keltiruvchi iqtisodiy tarmoq ekanligini yaqqol namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega mamlakat hisoblanadi. Avvalo, uning geografik joylashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixan bu hudud qadimiy savdo yo'llari - Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalaridan biri bo'lib, Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning markazi sifatida shakllangan. Mazkur omil hududda turli madaniyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi va boyishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda ham bu tarixiy meros turizmni rivojlantirishda muhim resurs sifatida xizmat qilmoqda. Respublikada 4 mingdan ortiq tarixiy-me'moriy obidalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati jahon ahamiyatiga ega. Shu bilan birga, mamlakatning tabiiy-iqlim sharoiti ham turizmni rivojlantirish uchun nihoyatda qulaydir. To'rt faslning aniq namoyon bo'lishi yil davomida turli turizm turlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa turizm oqimining mavsumiyligini kamaytirish va yil davomida barqaror daromad olish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan dasturda quyidagi ustuvor strategik vazifalar belgilangan:

- mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi imijini shakllantirish va mustahkamlash;
- milliy madaniy-tarixiy merosni jahon miqyosida targ'ib qilish;
- millatlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;
- turizmni davlat byudjeti uchun muhim valyuta manbaiga aylantirish;
- aholi bandligini oshirish va hududiy rivojlanishni rag'batlantirish.

Mazkur vazifalar turizmni kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro va milliy tajriba shuni ko'rsatadiki, turizm orqali valyuta tushumlarini oshirish quyidagi: birinchidan, xorijiy turistlar sonini ko'paytirish, ikkinchidan, turistlarning mamlakatda bo'lish muddatini uzaytirish, uchinchidan, xizmatlar sifati va servis darajasini oshirish, to'rtinchidan, qo'shimcha xizmatlar hajmini kengaytirish, beshinchidan, turizm infratuzilmasini

rivojlantirish, oltinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish singari omillarga bog'liq. Masalan, rivojlangan turistik davlatlarda turistlarning o'rtacha qolish muddati ancha yuqori: Fransiyada 7,1 kun, Turkiyada 8,3 kun, Ispaniyada 11,4 kun, Isroilda esa 20 kungacha yetadi. Holbuki, O'zbekistonda 1990-yillar boshida bu ko'rsatkich atigi 2–3 kunni tashkil etgan[2.B.53]. Bu esa turizm xizmatlarini diversifikatsiya va zamonaviylashtirish zarurligini ko'rsatadi.

1990-yillarda O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qilgan muhim omillardan biri — infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi edi. Xususan mehmonxona va transport xizmatlarining sifati past bo'lgan, qo'shimcha xizmatlar ulushi juda kam (taxminan 1%), xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish tizimi shakllanmagan, xorijiy investitsiyalar yetarli darajada jalb etilmagan. Jahon tajribasida esa rivojlangan mamlakatlarda turizm daromadlarining 50 foizigacha aynan qo'shimcha xizmatlar hisobiga shakllanadi.

Turizmni rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan:

1-bosqich (1993–1994-yillar): iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va bozor munosabatlariga o'tish uchun shart-sharoit yaratish

2-bosqich (1995–1997-yillar): turizm boshqaruv tizimini shakllantirish va xalqaro turizm bozoriga integratsiya qilish

3-bosqich (1998–2000-yillar): zamonaviy turizm sanoatini yaratish va infratuzilmani modernizatsiya qilish

Jahon tajribasi turizmni rivojlantirishda keskin o'sish sur'atlarini ko'rsatadi. Masalan: Turkiya 1985-yilda 1,5 million turist qabul qilgan bo'lsa, 1992-yilga kelib bu ko'rsatkich 7 millionga yetgan; Singapurda 1966-yildagi 129 ming turist soni 1986-yilda 3,2 millionga yetgan; Vengriyada esa turistlar soni 19 millondan oshgan[3.B.54]. Bu ko'rsatkichlar turizmni to'g'ri strategiya asosida rivojlantirish yuqori natijalar berishini ko'rsatadi. 1990-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy zarurat, balki davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mazkur davrda turizmni boshqarishning institutsional asoslarini yaratish, me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish hamda sohani bozor munosabatlariga moslashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, turizmni markazlashgan boshqaruv tizimidan bosqichma-bosqich bozor mexanizmlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi. Turizm sohasida institutsional islohotlar, avvalo, boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali namoyon bo'ldi. Davlat tomonidan turizmni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqildi, sohaga mas'ul tashkilotlar faoliyati qayta ko'rib chiqildi va ularning vakolatlari kengaytirildi. Bu esa turizmni yagona strategik yo'nalishda rivojlantirish, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda xalqaro turizm bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shuningdek, mazkur davrda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mehmonxona xo‘jaligini modernizatsiya qilish, transport-logistika tizimini yaxshilash, turistik obyektlarga olib boruvchi yo‘llarni rekonstruksiya qilish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, tarixiy shaharlarda turistik xizmatlar ko‘rsatish tizimini rivojlantirish orqali turistlar oqimini oshirishga erishish ko‘zda tutildi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sifati xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarurligi alohida ta’kidlandi. Turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ham muhim omil sifatida qaraldi. Xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma korxonalar tashkil etish, mehmonxona biznesi va xizmat ko‘rsatish sohasiga investitsiyalar kiritish orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlashga e’tibor qaratildi. Bu jarayon nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki zamonaviy boshqaruv tajribasini joriy etishga ham xizmat qildi.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasi ham dolzarb hisoblandi. Sohada ishlovchi mutaxassislarini xalqaro talablar asosida tayyorlash, ularni xorijiy tajribalar bilan tanishtirish va xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirish muhim vazifalardan biri bo‘ldi. Chunki turizm sohasida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, xizmat sifati bevosita kadrlar malakasiga bog‘liqdir. Yana bir muhim yo‘nalish sifatida turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish masalasi ilgari surildi. An’anaviy tarixiy-madaniy turizm bilan bir qatorda ekologik turizm, ziyorat turizmi, sog‘lomlashtirish va rekreatsion turizm kabi yangi yo‘nalishlarni rivojlantirish zarurati yuzaga keldi. Bu esa turistlarning mamlakatda bo‘lish muddatini uzaytirish va turizm daromadlarini oshirish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, 1990–2000-yillarda amalga oshirilgan institutsional va tarkibiy islohotlar O‘zbekistonda turizm sohasining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Mazkur islohotlar keyingi davrlarda turizmni barqaror rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi hamda mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga zamin hozirladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshirildi. Mazkur davrda turizmni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosiy strategik yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Xususan, turistik korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, bozor mexanizmlariga moslashuvchanligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, turizm bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifa sifatida ilgari surildi. Jumladan, marketing, konsalting, reklama-axborot xizmati kabi zamonaviy xizmat turlarini joriy etish orqali turizm bozoriga xizmat qiluvchi yangi institutlar tizimi shakllantirildi. Turistik xizmatlar

narxini erkinlashtirish, ya'ni tariflarni bozor talabi va taklifiga asoslangan holda belgilash tizimi joriy etildi.

Turizm sohasida faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun litsenziya va sertifikatlash tartibini soddalashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga erishildi. Shu bilan birga, turizmning alohida yo'nalishlari bo'yicha maxsus litsenziyalar joriy qilinib, xizmatlar sifati va xavfsizligi ustidan nazorat kuchaytirildi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish ham turizm strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'ldi. Hamkorlikdagi qo'shma korxonalarini tashkil etish orqali nodavlat turizm sektori kengaytirildi, davlat, xususiy va jamoaviy mulk shakllariga asoslangan korxonalar soni ortdi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali turizm sohasida raqobat muhitini shakllantirishga erishildi.

Davlat turistik korxonalarini tijoratlashtirish jarayonlari chuqurlashtirilib, ularning tadbirkorlik faoliyati kengaytirildi. Shu bilan birga, turizm sohasida monopoliyaga qarshi choralar ko'rib, sog'lom raqobat muhitini yaratish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi. "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasining umumiy nazorat funksiyasi saqlangan holda, uning hududiy bo'linmalariga ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini mustaqil yuritish, jumladan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng vakolatlar berildi.

Mazkur davrda turizm tizimini tashkil etish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, sayr-tomosha (ekskursiya) tizimini takomillashtirish, turizmning mavsumiyligini kamaytirish va yil davomida faoliyat yurituvchi turizm shakllarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shuningdek, sayyohlik geografiyasini kengaytirish, yangi turistik yo'nalishlar va marshrutlarni ishlab chiqish orqali hududlar turizm salohiyatidan samarali foydalanishga erishildi.

Turistik-ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish, servis darajasi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, qo'shimcha xizmatlar turini kengaytirish muhim yo'nalishlardan biri bo'ldi. Turistik obyektlarni xalqaro standartlarga mos ravishda tasniflash va sertifikatlash tizimi joriy etilib, xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan mexanizmlar takomillashtirildi.

Savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, kommunikatsiya vositalarini modernizatsiya qilish, turizm sohasini reklama va axborot bilan ta'minlash tizimini kuchaytirish orqali turizmning jozibadorligi oshirildi. Shu bilan birga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish, mutaxassislarni xorijiy yetakchi ta'lim muassasalari va turistik kompaniyalarda amaliyot o'tashini tashkil etish orqali sohaning kadrlar salohiyati mustahkamlandi. Bundan tashqari, turizmning tarixiy-madaniy va rekreatsion resurslarini chuqur o'rganish, ularni muhofaza qilish, tiklash va targ'ib etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar

ishlab chiqildi. Bu esa milliy madaniy merosni asrash bilan birga, uni turizm orqali iqtisodiy resursga aylantirish imkonini berdi.

1990-yillar o'rtalaridan boshlab O'zbekistonning xalqaro turizm tizimiga integratsiyalashuvi jadallashdi. Jumladan, mamlakatning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Butunjahon Turizm Tashkiloti bilan hamkorligi yo'lga qo'yildi va boshqa xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalar kengaytirildi. Xorijiy hamkorlarni jalb etish maqsadida ixtisoslashgan tijorat firmalari tashkil etilib, ular orqali xalqaro aloqalar o'rnatildi va shartnomalar imzolandi. 1994-yil sentyabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokida "Buyuk Ipak yo'li" loyihasi rivojlantirishga bag'ishlangan muhim mintaqaviy uchrashuv o'tkazildi. Ushbu loyiha O'zbekistonning xalqaro turizm xaritasidagi o'rnini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi.

Turizm sohasida hukumatlararo bitimlar tuzish, xalqaro ekspert va mutaxassislarni jalb etish, MDH davlatlari turistik tashkilotlari assotsiatsiyasiga a'zo bo'lish orqali hamkorlik yanada kengaytirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va milliy aviakompaniyasi imkoniyatlaridan foydalanib, asosiy turistik yo'nalishlarda reklama va marketing tadqiqotlari olib borildi. Xususan, sayyohlar oqimi yuqori bo'lgan davlatlarda, jumladan AQSh va Germaniyada Milliy kompaniya vakolatxonalarini ochish zarurati asoslab berildi. Mazkur davlatlar Yaponiya bilan birgalikda jahon turizm daromadlarining salmoqli qismini shakllantirishi ta'kidlandi.

Dastlabki bosqich yakunlariga ko'ra kutilgan natijalar 1994-yilga kelib O'zbekistonda 100–120 ming nafar xorijiy va 400 ming nafar mahalliy sayyohni qabul qilish imkoniyatiga erishish, 14 million AQSh dollari miqdorida valyuta tushumini ta'minlash rejalashtirildi[5.B.56-57]. Shuningdek, xalqaro standartlarga mos 3–4 yulduzli mehmonxonalar qurish va rekonstruksiya qilish, turizm korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar sonini ko'paytirish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm O'zbekiston iqtisodiyotining istiqbolli va yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biridir. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, qulay geografik joylashuvi va tabiiy sharoiti turizmni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bilan birga, sohani yanada rivojlantirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va xalqaro turizm bozorida faol ishtirok etish muhim ahamiyatga ega. Turizmni kompleks rivojlantirish orqali O'zbekiston nafaqat iqtisodiy o'sishga erishadi, balki o'zining boy madaniy merosini jahon miqyosida keng targ'ib qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O`zR MA, M-141-fond, 1-ro`yxat, 38-ish, 52-varaq.
2. O`zR MA, M-141-fond, 1-ro`yxat, 38-ish, 53-varaq.
3. O`zR MA, M-141-fond, 1-ro`yxat, 38-ish, 54-varaq.
4. Murodov H.S. O`zbekistonda xalqaro turizmning yo`lga qo`yilishi (1993-1997-yillar misolida)" // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2025. - №. 4. – B.164.
5. O`zR MA, M-141-fond, 1-ro`yxat, 38-ish, 56-57-varaqlar.